XALQ DEPUTATLARI MIRZACHO‘L TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-17-138-3-51-K/25 Mirzacho‘l tumani

Mirzacho‘l tumanining 2026 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025 yil 25 dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025 yil 29 dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025 yil 29 dekabrdagi 02-01-01-175-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Mirzacho‘l tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025 yil 29 dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Mirzacho‘l tuman byudjetining 2026 yilgi daromadlari **60 915 355 ming so‘mga** va xarajatlari esa **78 443 403 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar **17 530 048 ming so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Mirzacho`l tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **346 000 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2026 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026 yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, 2026 yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me`yori 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy byudjetining 2026 yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvosiq, shuningdek tuman byudjeti aylanma kassa mablag`ining yo`l qo`yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026 yil uchun **919 825 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Lapasov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.O‘zbekov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Nurqobilov) bilan birgalikda 2026 yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi, hamda davriy moliyaviy hisobotlarni to`g`ri shakllantirilishi va o`z vaqtida taqdim etilishini ta`minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror 2026 yil 1 yanvardan kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Mirzacho‘l tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (F.Qayumova) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Lapasov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **B.K.MIRZAKULOV**

Xalq deputatlari Mirzacho‘l tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-138-3-51-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2026 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Mahalliy reja
	JAMI	**60913 355**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	3113 600
2	Foyda solig‘i	426 000
3	Aylanmadan olinadigan soliq	2847 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	23962 000
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	236 000
6	Aksiz solig‘i jami	1865 000
6,1	*alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)*	0
6,2	*pivo*	0
6,3	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	1865 000
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1890 194
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	3540 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8681 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	4335 561
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5218 000
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	8400 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-3360 000
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	2450 000
15	Yig‘imlar	599 000
16	Jarimalar	1721 000
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	29 000

Xalq deputatlari Mirzacho‘l tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-138-3-51-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026 yil uchun Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumani byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa
Xarajatlar miqdori, jami		**78443 403,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	24065 112,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	1236 000,0
2	Madaniyat bo‘limi	5218 553,0
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	1669 860,0
4	Sport bo‘limi	3187 520,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1738 654,0
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2897 703,0
7	Irrigatsiya bo‘limi	1297 647,0
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2283 229,0
9	Hokimiyat	19013 840,0
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*9888 000,0*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*460 000,0*
	Zahira jamg‘armasi	*919 825,0*
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	837 885,0
	shundan:	
	Axborot-kutubxona markazlari	*837 885,0*
11	Obodonlashtirish boshqarmasi	16233 400,0

Xalq deputatlari Mirzacho‘l tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-138-3-51-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026 yilda umumdavlat soliqlaridan Mirzacho‘l tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

foiz hisobida

№	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to‘lovchilar	Ajratma me’yori
1	**Qo‘shilgan qiymat solig‘i**	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
2	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i****	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
3	**Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan**	Tuman byudjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
4	**Foyda solig‘i*****	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
5	**Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)**	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	100%
6	**Pivo**	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	100%
7	**Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i**	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
8	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%

		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
9	**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i**	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
10	**Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman byudjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
11	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman byudjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
12	**Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar**	Tuman byudjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
13	**Aylanmadan soliq**	Tuman byudjetiga		100%
		Viloyat byudjetiga		0%
14	**Davlat boji**	Tuman byudjetiga		100%
		Viloyat byudjetiga		0%
15	**Jarima**	Tuman byudjetiga		100%
		Viloyat byudjetiga		0%
16	**Yig‘imlar**	Tuman byudjetiga		100%
		Viloyat byudjetiga		0%

Izoh: HST - Hududiy soliq to‘lovchilar, YST - Yirik soliq to‘lovchilar

Xalq deputatlari Mirzacho‘l tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-138-3-51-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Mirzacho‘l tuman mahalliy byudjetining 2026 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Mahalliy byudjetlarning jami daromadlari	Shundan,		Mahalliy byudjet xarajatlari
		Mahalliy byudjet daromadlari	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
Mirzacho‘l tumani	78443 403,0	60913 355,0	17530 048,0	78443 403,0

Xalq deputatlari Mirzacho‘l tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-138-3-51-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2026 yil Mirzacho‘l tumani mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Mirzacho‘l tumani	**346 000,0**